

INDAU (*ERUCA SATIVA* MILL.)NING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Eshdavlatova Dilfuza Bekmurodovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali
Farmakologiya va klinik farmakologiya” kafedrası assistenti
Termiz shahri, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisdá indau o‘simligining morfobiologik xususiyatlari va dorivorlik xususiyatlari keltirilgan bo‘lib, indau o‘simligining hozirgi kunda dunyo miqyosida foydalanilib kelinayotganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. *Eruca sativa* Mill., antioksidantlar, vitaminlar, karotin, flavanoidlar, retinol, gemisellyuloza, sellyuloza lignin.

Аннотация. В этом тезисе излагаются морфобиологические свойства и лечебные свойства растения индау, а также приводится информация о том, что растение индау в настоящее время используется во всем мире.

Ключевые слова. *Eruca Sativa* Mill., антиоксиданты, витамины, каротин, флаваноиды, ретинол, гемицеллюлоза, лигнин целлюлозы.

Annotation. This thesis cited the morphobiological properties and medicinal properties of the indau plant, and provided data on the current worldwide use of the indau plant.

Keywords. *Eruca sativa* Mill., antioxidants, vitamins, carotene, flavanoids, retinol, hemicellulose, cellulose lignin.

Kirish. Indau (*Eruca sativa* Mill.) – Karamguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘simlikdir.

Eruca sativa Mill. haqidagi dastlabki ma‘lumot birinchi marta 1753-yilda *Brassica vesicaria* nomi bilan Karl Linney tomonidan *Plantarum* turlari, 2-jild, 668-betida keltirilgan. Shundan keyin *Eruca* avlodi nomi 1754 yilda Filipp Miller tomonidan *The Gardeners Dictionary...*, 4-nashr, 1-jildida nashr etilgan. *Eruca* avlodining tavsifi 1802 yilda Antonio Jose Kavanilles tomonidan “*descripción de las Plantas*” asarida keltirilgan.

O‘simlikning binar nomidagi lotincha *sativa* sifatdoshi satumdan olingan bo‘lib, sero fe‘lining sinonimi bo‘lib, “ekmoq” ma‘nosini bildiradi. Bu esa indauning urug‘lari bog‘larga ekilganligidan dalolat beradi. Ba‘zi botaniklar uni *Eruca vesicarianing* kenja turi deb hisoblashadi. Yana boshqalar esa bu ikkisini farqlay olmaydilar.

Hozirgi zamon qarashlariga ko‘ra indau:

Eukariotlar olami,

O‘simliklar dunyosi,

Gulli o‘simliklar bo‘limi,

Ikki pallalilar sinfi,

Karamdoshlar oilasi,

Indau

Sabzavotlar tarkibi jihatidan provitamin A–karotinga boyligi bilan inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Karotin inson va hayvon organizmida retinolga aylanib turli kasalliklarga chalinishining oldini olishda yordam beradi .

Indauning kimyoviy tarkibi juda boy. 100 g yangi bargida 60-120 mg% S vitamini, 50 mg B9 va 1,8 mg A vitamini, 8 mkg/kg yod, 40 mg magniy, 80 mg kalsiy, 220 mg

kaliy, 0,5-0,6 mg temir, mineral va dubil moddalar, flavonoidlar – glyukozydlar, kempferol, kversetin, izoramnetin kabi moddalar mavjud .

Barglarida 100 g ho‘l massasida 363 mg K, 5 mg Na, 47 mg Sa, 18 mg Mg, 0,5 mg Fe, 0,4 Mn, 0,04 mg Cu, 0,33 mg Zn mavjud .

Esiok D. va b.q. (2010) ma'lumotlariga ko‘ra barglarida quyidagi moddalar uchraydi (mg/g): 2,41-N, 0,48-P, 5,48-K, 0,81-Ca, 0,62-Mg, 0,63-Na; (mg/kg): 114,12-Fe, 7,70-Cu, 43,58-Zn, 46,86-Mn .

M.A. Levinskiy, V.N. Sichev, O.B. Signalov va boshqalar (2001) ma'lumotlariga ko‘ra indau bargi tarkibida 146,5 mg% askorbin kislotasi mavjud bo‘lib, bu boshqa karamdoshlar oilasiga kiruvchi ekinlarga nisbatan juda yuqori hisoblanadi. Uning tarkibida bundan tashqari 11,9 % quruq moddalar, 212,3 mg% nitratlar mavjud .

Urug‘lari moyga boy (26-34%) kampesterin, brassikasterin, xolesterin kabi steroidlarga boy. Ularning tarkibida antioksidant aktivligiga ega bo‘lgan glyukoerusin, izotiosianat tioglyukozydleri va alkaloidlar mavjud . Urug‘ining tarkibida 26-34% gacha moy bo‘lib, unda eruka kislotasi 20-44%, linol kislotasi 12,0-24,9%, linolen kislotasi 17,0%, olein kislotasi 18% gacha bo‘ladi. G‘arbiy Osiyo, Pokiston va Shimoliy Hindistonda Eruca urug‘idan taramira yog‘i tayyorlash uchun foydalaniladi .

Hind olimlari Samar P.S., Rajput O.P., (1993), Mailwal P.L. (1985) tomonidan erta muddatda etishtirilgan indau urug‘larida protein va moy miqdori yuqori bo‘lishini isbotlashgan. Urug‘larida moy miqdorining ko‘pligi (28-30%) qurg‘oqchilikka va kasalliklarga chidamliligi, zararkunandalar bilan deyarli zararlanmasligi indauni istiqbolli ekinlar guruhiga kiritishga asos bo‘la oladi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Биткова Н.П. Эрука посевная-новая салатная культура Приамурья / Н.П.Биткова // Проблемы экологии и рационального использования природных ресурсов в Дальневосточном регионе / Благовещенский гос.пед.ун-т. Том 1. Благовещенск, 2004. – С. 173-175.

2. Лудилов В.А., Иванова М.И., Куршева Ж.В. Влияние срока и схемы посева на урожайность зелени и семян зеленных овощных культур семейства Капустные. В сб.: Сборник научных трудов по овощеводству и бахчеводству: к 80- летию со дня основания ГНУ ВНИИО. М., 2011. – С. 405-412.

3. Muqimov B., Aramov M. Indau- introduksiya uchun istiqbollosabzavot ekini// J: Agrokimyo himoya va o‘simliklar karantini. 2021, №2. – B 90-93.

4. Синская Е.Н. Индау. Малоизвестное масличное и салатное растение (Eruca sativa Lam.) /Е.Н.Синская // Ж: Труды по прикладной ботанике и селекции. Том 14. – Л.,1925. – С. 149-176.